

TURKISTON O‘LKASIDA SOVET HOKIMIYATI BOSHQARUV TIZIMINING O‘RNATILISHI

To‘ychiyev Eldor Shuhrat o‘g‘li

Termiz davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiston o‘lkasida sovatlar hukmronligi o‘rnatilishi arafasida qanday vaziyat hukm suriyotganligi, sovet boshqaruv tizimi qay tarzda o‘rnatilganligi hamda bu davrda o‘zimizda ham qanday hukmron birliklar shakllanganligi haqidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sovet, Turkiston, partiya, bolsheviklar, Sho‘royi ulamo, Lenin, mustamlakachilik.

Turkiston o‘lkasi 1847-yildan to 1885-yillar oralig‘ida rus hukumati tomonidan egallanishi kabi ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda bu hududda “Turkiston general gubernatorligi” nomli hududiy birlik shakllantirildi. Turkiston general gubernatorligining tuzilishi bu hududning ancha yillar davomida Rossiya mustamlakasi bo‘lishini ham aniq belgilab berar edi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. XX asrning boshlarida Rossiyadagi siyosiy jarayonlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu davrga kelib hokimiyat sohasida alohida qarashlar vujudga kelganligi bilan harakterlanadi. Ya‘nikim, bu davrga kelib Rossiya hududida imperator hokimiyati o‘z inqiroz davrini boshdan kechiriyotgan edi.

1905-yil 9-yanvarda yuz bergan inqilob ham buning isbotlaridan biridir. 1917-yildagi voqealar natijasida, Rossiyada hukumat rahbarligi bolsheviklar qo‘liga o‘tadi¹. Biz bu davrda Rossiya mustamlakasi bo‘lganligimiz sababli, markazdagi voqealar hamda siyosiy jarayonlarning aksi bizda ham sezilishi tabiiy edi. Bu davrda davlatimiz hududida ham bir

¹ B.Eshov “O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi” 402-bet

nechta partiyalar faoliyat olib borishiyotgan edi. Bu partiyalarning asosiy negizidagi shaxslar bu jadidlar edi. Jadidlarning ko‘zga ko‘ringan namoyondalaridan Behbudiy hamda Fitrat ham markazdagi voqealarni tahlil etish barobarida o‘z qarashlarini bayon etganlar. Fitrat 1917-yildagi Rossiyadagi voqealarni kuzatib, “Rossiyada bosh ko‘targan balo bu bolsheviklar balosidir” deb aytgan.

Yurtimizda bu davrda “Sho‘royi islomiya” hamda “Sho‘royi ulamo” kabi partiyalar bor edi. Sho‘royi ulamo ham, Sho‘royi islomiya ham davlatimizni mustaqillikka erishishining tarafdori edi. Shuningdek, bu vaqtda yurtimizda muvaqqat hukumat ham tuzilgan edi. 1917-yilda Turkiston komiteti tuzildi. Bu komitetga Nikolay Shchepkin hamda Vladimir Nakivkin rahbarlik qilishgan bo‘lsalar, Rossiyadagi muvaqqat hukumatda Georgy Lvov va Aleksandr Kerenskiy rahbarlik qilishganlar. Ammo 1917-yil oktabr to‘ntarilishi natijasida Rossiyada hokimiyat tepasiga Lenin boshchiligidagi ishchilar partiyasi keldi. Markazdagi holat o‘zgarishi faqatgina markaz bilan cheklanib qolmadi. 1918-yilga kelib jadidlarimiz tomonidan tuzilgan ikkala partiya ham tugatilib tashlandi.

Sovet hukumati o‘rnatilishi natijasida qisqa vaqt ichida yurtimizda bir nechta hukumat ag‘darilib o‘rniga yangilarining kelganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Hattoki qisqagina vaqt oralig‘ida bo‘lsada Turkiston muxtoriyati ham o‘z faoliyatini amalga oshirganigi tariximizdan ma’lum. Bizda “nima uchun sovet rahbariyati tez-tez hukumatni almashtirgan?”- degan, savol yuzaga kelishi mumkin. Tarixiy xulosalarga tayanadigan bo‘lsak, hukumatlar almashinuvi har bir mustamlakachi davlatning “puxta o‘ylangan strategiyasi” desak ham adashmaymiz. Sababi markaz o‘ziga bo‘ysunishni istamay mustaqillikka intilgan har bir hukumatni kuch bilan ag‘darib tashlagan. Turkiston muxtoriyatining ag‘darilishi ham shu tariqa yuz bergan. Shu uchun ham yurtimizda ko‘pincha favqulodda holat joriy etiladi. Sovetlarning yurtimizni boshqaruvida amalga oshirgan ishlaridan yana biri bu Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasining tuzilganligi edi.

Turkiston ASSR 1918-yil 20-apreldan 1-may oralig‘ida Toshkentda bo‘lib o‘tgan Turkiston ishchi, soldat, krestian, musulmon va dehqon deputatlarining V o‘lka syezdidagi

qaror natijasida tuzilgan². Negaki, sovet Rahbari Lenin barcha xalqlar o‘z davlatini tuzishga ruhsat beramiz deb ta’kidlagan edi. Biroq har bir tashkil etilgan hukumat markaz tomonidan tugatilgan hattoki, bu yo‘lda kuch ishlatishdan ham toyishmaganlar.

Turkiston o‘lkasidagi dastlabki sovet hukumatining ziddiyatli tarkibi mintaqada yevropalik aholi hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan edi. Tugatilishi kutilgan mustamlakachilik yangicha asosda boshlanib ketdi. “Turkistondagi mustamlakachilik hattoki sovet hokimiyatining butun bir yo‘nalishini belgilab berdi” deb keyinchalik tan olgan edi T.Safarov³. Mahalliy millatlarning siyosiy jarayonga aralashtirilmaganligi o‘lka xalqlarining sovet hokimiyatiga bo‘lgan ishonchsizligini yanada kuchaytirdi. Hattoki Turkistondagi yevropalik aholining demokratik qatlamlari ham bolsheviklar va so‘l eserlarning bunday makkarono siyosatiga qarshi chiqdilar. Hukumat tuzishda ulug‘ davlatchilik shovinizm aqidalariga amal qilinganligi yangi hokimiyatning siyosiy faoliyatini oldidan belgilab berdi. Turkiston XKS 1917-yil oxirlarida o‘z qarori bilan Sho‘royi islomiya va boshqa mahalliy demoktarik tashkilotlarni tarqatib yubordi. Shu tariqa, dastavval Rossiya markazida qaror topgan sovet rejimi Turkiston o‘lkasida ham o‘rnatildi.

Zo‘ravonlik va xalqlarni ezishga qaratilgan sovet rejimi o‘zining ilk kunlaridan boshlab Turkistondagi tub xalqlarga nisbatan mustamlakachilik siyosatini yuritdi. Chor Rossiyasining mustamlakachilik tizimi sovet Rossiyasi davrida yanada takomillashtirildi⁴. Sovet hukumati o‘zining siyosiy qirg‘inlarini mustaqillikka erishgunimizcha har xil ko‘rinishda olib bordi. Biz hozir bular haqida ham to‘xtalib o‘tamiz. Sababi bu hodisalarning hammasi sovet Rossiyasi tomonidan davlatni boshqarish yo‘lida olib borilgan siyosati edi. Mahalliy partiyalar hamda Turkiston muxtoriyati tugatilishi, yer-suv islohotlari, kollektivlashtirish, xonliklar tugatilib ular o‘rniga Xorazm xalq sovet respublikasi, Buxoro xalq sovet respublikasi tuzilishi, milliy hududiy chegaralanish o‘tkazilishi, “hujum harakati”, qatog‘onliklar, “paxta ishi” kabi ishlarning amalga oshirilishi

² B.Eshov “O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi” 405-bet

³ H.Murtazayeva “O‘zbekiston tarixi”. “Yangi asr avlodi”. 387-bet

⁴ H.Murtazayeva “O‘zbekiston tarixi”. “Yangi asr avlodi”. 388-bet

ham sovet tuzimining bu hududni ko‘proq o‘z ta‘sir doirasida saqlash uchun olib borgan ishlaridir.

Har bir olib borilgan siyosatning tag zamirida kuchli manfaatlar yotgan. Misol qiladigan bo‘lsak, “hujum harakatini” olaylik, bu harakat puxta o‘ylangan reja asosida olib borilgan sababi, bu davrga kelib sanoat ishlab chiqarishi hamda davlatda ishchi kuchiga bo‘lgan talabning kuchliligi bu harakatning amalga oshishiga sababchidir. Bu davrgacha ayollarimiz faqatgina oila yumushlari bilan cheklanishganlar. “Hujum harakati” esa, hukumat uchun ayollardan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanish imkonini yaratdi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Turkistonda sovet rejimining o‘rnatilishi oldidan juda ham ko‘p va‘dalar berilishiga qaramay sovet hukumati bu Rossiya boshqaruvining yangi ko‘rinishi bo‘lib faqatgina hukumat nomining amlashishi bo‘ldi. Chunki rus bosqini natijasida qanday siyosat olib borilib xalq zulm ostida qolgan bo‘lsa sovet rejimi davrida ham shu ishlar hech qanday ijobiy o‘zgarishlarsiz davom etdi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Turkistonda oktabr to‘ntarilishidan keyin sodir bo‘lgan voqealar jarayoni shuni ko‘rsatadiki, bolsheviklar o‘rnatgan sovet rejimi o‘lka xalqlariga nafaqat mustaqillik, hattoki milliy muxtoriyatni ham ravo ko‘rmadi. Mustaqillik osonlikcha qo‘lga kiritilmasligini tushunib yetgan milliy vatanparvarlar qo‘lga qurol olib, bolsheviklarga qarshi qurolli harakatlar ham olib borishdilar. Lekin bu kabi ishlarning hammasi samarasiz tugadi. Bu harakatlarning asosiy kuchi bu oddiy xalq bo‘lgani hamda ularning harbiy ta‘lim ko‘rmaganligi bu ular uchun salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Lekin ajdodlarimiz hech qachon milliy ozodlik harakatlarini to‘xtatmadi. Bu kabi voqealar 1991-yilda davlat mustaqilligimizni qo‘lga kiritgunimizcha davom etgan. Tarixga nazar tashlash orqali xalqimizning qanchalik sabr-bardosh bilan mustamlakachilikni boshdan kechirganiga guvoh bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Eshov “O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”. T-2012. 455 bet.
2. H.Murtazayeva “O‘zbekiston tarixi”. “Yangi asr avlodi”. T-2003. 677 bet.
3. Sh.Vohidov, R.Xoliqova “Markaziy Osiyo davlat boshqaruvi tarixidan”. “yangi asr avlodi”. T-2006. 74 bet
4. И.Муминова “История Узбекской ССР”. T-1974. 308 bet
5. В.В.Григорьевым “Россия и Азия. Сборник исследований и статей по истории, этнографии и географии, написанных в разное время”. Peterburg-1876. 292 bet